

Xulosa qilib aytganda, institutsional investorlarni bozor iqtisodiyotining o'z-o'zidan ishlaydigan va avtomatik tarzda barqarorlikni ta'minlovchi mexanizmi sifatida talqin etish ilmiy jihatdan to'liq asosli emas. Ularning iqtisodiy tizimdagi samaradorligi va real ta'siri muayyan huquqiy, institutsional va tartibga solish muhitiga bevosita bog'liqdir. Investor huquqlarining ishonchli himoyasi, axborot shaffofligi, rivojlangan moliyaviy infratuzilma hamda rag'batlantiruvchi mexanizmlarning mavjudligi institutsional investorlar faoliyatini samarali yo'naltiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Shu bois institutsional investorlarni strategik institut sifatida baholash, ularning imkoniyatlarini ochib beradigan normativ-huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Faqat ana shunday kompleks yondashuv sharoitidagina institutsional investorlar kapital bozorining chuqurlashuvi, korporativ boshqaruv sifati oshishi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga real hissa qo'sha oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*Andries A., Brodocianu M., Sprincean N. (2022). The role of institutional investors in the financial development. Economic Change and Restructuring, 56, 345-378.*

*Clark G., Monk A. (2017). Institutional Investors in Global Markets. Oxford University Press. 276p.*

*Drobetz W., El Ghouli S., Guedhami O., Yu X. (2025). Beyond Ownership: The Role of Institutional Investors in International Corporate Governance. Corporate Governance: An International Review. p.1024-1038.*

*Jahnke P. (2019). Ownership concentration and institutional investors' governance through voice and exit. Business and Politics, 21, p. 327-350.*

*Klettner A. (2021). Stewardship Codes and the Role of Institutional Investors in Corporate Governance: An International Comparison and Typology. British Journal of Management.*

*Lewellen J., Lewellen K. (2017). Institutional investors and corporate governance: The incentive to increase value.*

## **FOND BOZORIDAGI INSTITUTSIONAL TUZILMALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

**Narzullayeva Xilola Abdukomilovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Tezisdagi fond bozori institutlarining milliy iqtisodiyot moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda moliya tizimi barqarorligini mustahkamlovchi institutsional ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishlari aniqlangan hamda globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida fond bozorini rivojlantirishga doir muammolar va istiqbollari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, institutsional tuzilmalar, moliyaviy barqarorlik, investitsiya fondlari, globallashtirish.

Tezisdagi banklarning fond bozoridagi institutsional investorlar sifatidagi faoliyati tizimli ravishda o'rganilgan. Tadqiqotda amaldagi qonunchilikka muvofiq, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan 2025 yilga qadar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 milliard so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish talabi belgilanganligi inobatga olinib, O'zbekiston bank tizimini isloh qilish

strategiyasi hamda rivojlanish strategiyasi doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar tahlil qilingan.

Mazkur jarayonlar banklarning fond bozoridagi institutsional investor sifatidagi rolini kuchaytirish, kapital bozorini chuqurlashtirish hamda milliy moliya tizimining barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar fond bozorida institutsional investorlar faoliyat yuritadi va ularning xizmatlaridan asosan banklar, sug'urta kompaniyalari, pensiya hamda investitsiya fondlari foydalanadi. Ushbu jarayonda tijorat banklari fond bozorida bir vaqtning o'zida bir nechta rolni bajarishi mumkin: qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali emitent sifatida, fond bozori savdolarida aksiyadorlik (asosan o'zaro – mutual) investitsiya fondlarini shakllantirishda investitsiya vositachisi sifatida hamda qimmatli qog'ozlarga mablag' kirituvchi investor sifatida ishtirok etadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari uchun bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab 100 milliard so'm etib belgilangan. Kelgusida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga o'zgartirishlar kiritish orqali 2025 yilga qadar bank ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 milliard so'mgacha oshirish taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, bank ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, bank muassislari va aksiyadorlari tomonidan kiritilgan mablag'lar yoki davlat qimmatli qog'ozlari hisobidan shakllantirilishi belgilangan. Mazkur holat tijorat banklarining nafaqat ustav kapitalini shakllantirish jarayonida, balki fond bozorida institutsional investor sifatidagi faolligini kuchaytirishida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida yangi moliyaviy institutlarning vujudga kelishi qonuniy va obyektiv jarayon hisoblanadi. Ushbu moliyaviy institutlar qatorida jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish jarayonida faol ishtirok etayotgan tijorat banklari alohida o'rin tutadi [1].

Xalqaro amaliyotda institutsional investorlar faoliyati fond bozorining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, U. Sharpening ta'kidlashicha, AQSh fond bozorida institutsional investorlarning o'sib borayotgan ahamiyatini tahlil qilishda asosiy e'tibor pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari hamda banklarning investitsiyaga yo'naltirilgan trust operatsiyalariga qaratiladi [2]. Ushbu institutlarning umumiy ulushi Amerika korporatsiyalari tomonidan chiqarilgan aksiyadorlik kapitalining yarmidan ortig'ini tashkil etadi [2].

Mazkur yondashuv iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ularda xo'jalik subyektlari uchun zarur moliyaviy resurslar moliya bozori instrumentlari orqali jalb etiladi [3]. Bu esa rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yurituvchi institutsional investorlar, xususan tijorat banklari muhim moliyalashtiruvchi kuch ekanligini ko'rsatadi [3].

Tijorat banklarini institutsional investor sifatida tavsiflashda V.N. Kolesnikov tomonidan berilgan ta'rif alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u institutsional investorlarni qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar sifatida izohlaydi [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi A.T. Uzokovning fikriga ko'ra, institutsional investorlar boshqalarning mablag'larini professional tarzda boshqaruvchi mutaxassislar

hisoblanadi va ular banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya hamda pensiya fondlari tarkibida faoliyat yuritadi [5].

Respublikamiz fond bozorining institutsional investorlar ishtirokida kengayishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonda belgilangan vazifalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich liberallashtirish, yirik korxonalar va ularning aksiyalarini, jumladan fond birjalari orqali xususiylashtirish, shuningdek, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi besh yil davomida fond bozori aylanmasini 200 mln AQSh dollaridan 7 mlrd AQSh dollarigacha oshirish vazifasi qo'yilgan [6]. Ushbu yo'nalishlar qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining institutsional investor sifatidagi faolligini oshirishni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda institutsional investor (emitent) sifatida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan chiqarilgan aksiyalar hajmi 60,3 trln so'mni tashkil etib, bu mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan jami aksiyalarning 33,7 foiziga, institutsional institutlar tomonidan chiqarilgan aksiyalarning esa 96,7 foiziga tengdir. Mazkur holat tijorat banklarining fond bozorida institutsional investor-emitent sifatida deyarli monopol mavqega ega ekanligini hamda mamlakat moliyaviy salohiyatining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga kuchli ta'sir ko'rsatayotganligini anglatadi.

Biroq, respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan jami aksiyalar tarkibida moliyaviy sektor ulushi 35,3 foizni tashkil etadi. Bu esa fond bozorida joylashtirilgan aksiyalarning asosiy qismi moliyaviy bo'lmagan sektor hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Respublikamiz bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholining zamonaviy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish hamda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishdan iborat. Ushbu jarayonda 2020-yil 12-maydagi Prezident farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi (2020–2025-yillar)" muhim ahamiyatga ega [7].

Kelajakda fond bozori institutional tuzilmalari rivojlanishi quyidagilarga xizmat qiladi: moliya tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash; fond bozorida o'zgaruvchanlikni kamaytirish; uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish; iqtisodiyotning global inqirozga chidamliligini oshirish. Shu bilan birga, institutional tuzilmalari nafaqat bozor ishtirokchilari, balki bozor jarayonlarini faol tartibga soluvchi sub'ektlar sifatida ham ahamiyat kasb etadi va davlat, biznes hamda aholi manfaatlarini o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, fond bozori institutional tuzilmalari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda eng muhim mexanizmlardan biridir. Ularning samarali faoliyati inqirozlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi, iqtisodiyotning investitsion salohiyatini rivojlantiradi va milliy moliya tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman.

➤ Fond bozori institutional tuzilmalarining faoliyatini yanada samarali qilish uchun nazorat va regulyatsiya mexanizmlarini takomillashtirish.

➤ Uzoq muddatli va barqaror investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy vositalar va shart-sharoitlarni kengaytirish.

➤ Bozor ishtirokchilari uchun shaffoflikni oshirish va axborot ochiqligini ta'minlash.

➤ Milliy moliya tizimining global inqirozlar ta'siriga chidamliligini oshirish uchun institutional tuzilmalarning koordinatsiyasini kuchaytirish.

Ushbu choralar fond bozorining pozitsiyasini mustahkamlashga, ichki va tashqi investorlarga jalb qilinishini oshirishga hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam asos yaratishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1] O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-580-son (yangi tahrir). — Toshkent shahri, 2019-yil 5-noyabr.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2020-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi (2020-2025-yillar) to'g'risida".

[4] Sharp W.F., Alexander G.J., Bailey J. Investitsiyalar: darslik / ingliz tilidan tarjima. — Moskva: INFRA-M, 2001. — XII, 1028 b.

[5] Kolesnikov V.N., Torkanovskiy V.S. Qimmatli qog'ozlar bozori: darslik. — Moskva: Finansy i statistika, 2003. — 447 b.

[6] <https://deponet.uz>. Ma'lumotlari.

[7] 2020 йил 12 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5992-сонли "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги Фармони

## **INSTITUTIONAL INVESTORLAR ISHTIROKINI KENGAYTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI**

**Abduxakimov Eldor Djalolidinovich**

TDIU, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi assistenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda institutsional investorlar rolini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Statistik ma'lumotlar asosida kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda moliyalashtirish manbalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes faoliyati asosan bank kreditlariga tayanishi moliyaviy risklarni kuchaytiradi. Institutsional investorlar — pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa yirik moliyaviy institutlar kapitalini kichik biznes sektoriga yo'naltirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Maqolada institutsional investitsiyalarni kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, institutsional investorlar, investitsiya fondlari, pensiya jamg'armasi, kapital bozori, moliyalashtirish manbalari.

Kichik biznes subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesning